



Xaydarova Nozima Axadovna

Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi  
274-maktabning tarix fani o'qituvchisi

## O'QUVCHILARNING TARIXIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI VA AMALIY AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarix darslarida qo'llaniladigan interfaol metodlar, ularning dars jarayonida qo'llanilishida hamda o'qituvchi hamda o'quvchilarning bu metodlardan qay tarzda foydalanishlari haqida fikr mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Interfaol, pedagogika, tashabbus, o'qituvchi, innovatsiya, rahbar, tashkilotchi, mini-leksiya.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются интерактивные методы, используемые на уроках истории, их использование в ходе урока, а также то, как учителя и ученики используют эти методы.

**Ключевые слова:** Интерактив, педагогика, инициатива, педагог, новаторство, лидер, организатор, мини-лекция.

**Abstract:** This article discusses interactive methods used in history classes, their use in the course of the lesson, and how teachers and students use these methods.

**Key words:** Interactive, pedagogy, initiative, teacher, innovation, leader, organizer, mini-lecture.

So'nggi yillarda barcha ta'lif muassasalarida o'qitish jarayonida interfaol usullardan foydalanish masalasi dolzarb etib ko'rsatilmoqda. Bu esa interfaol ta'lif asosida tashkil etilayotgan pedagogik jarayonalarni mazmun-mohiyatini to'liq tushunib yetishga va ularni samarali, qiziqarli, sifatl bo'lishini ta'minlashga olib keladi.

Interfaol usullardagi darslar o'quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, firkin yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Bunday yondashuvlar tarix fanlari o'qituvchilari uchum muhimdir.

Hozirda yangicha metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lif jarayonida tadbiq etish haqida to'xtalganda interfaol usillar bilan birga texnika vositalarining qo'llanilishi tushuniladi.

Interfaollik o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi, o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin yuritishiga muhit yaratishdir. U o'zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o'quv sifati hamda samaradorligini oshirishni ta'min etadi.

Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o'quvchi chetda qolmaydi, ya'ni ular ko'rgan, bilgan o'ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o'zlashtirishda o'zlarining shaxsiy hissasini qo'shishi mikoniyatiga ega bo'ladilar. O'zaro bilimlar, g'oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo'ladi.

Interfaol dars shunday tashkil etilishi kerakki, bunda sinfdagi barcha o'quvchilar faollashishlari zarur. O'qituvchi bu jarayonning tashkilotchisi, rahbari va nazoratchisidir. Interfaol usul dars olib borilayotgan o'quvchi sinfda o'zini erkin his qilishi o'quv jarayoni emotsiyonal uni qoniqtirsagina amalga oshib o'z fikrlarini erkin bayon eta oladi. O'qituvchi o'quvchining bilimlarini mustahkamlash va sinash maqsadida albatta savolni to'g'ri qo'ya bilishi kerak.

Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlantirilib, ularda erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, hissiyotlarni boshqara olish, tanqidiy va ijodiy fikr yuritishning rivojlanishiga zamin tayyorlanadi.

Interfaol metodlarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish:



2. Muammoli vaziyatli amaliy va hayotiy topshiriqlarni bajarish:

3. Fikrlashga majbur etish.

4. Faollashtirish.

5. O‘quvchilarni tashkilotchilik va yo‘naltiruvchanlikka undash.

Yuqorida fikrladan kelib chiqib tarix darslarini o‘tishda foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasini ko‘rib chiqamiz.

**Mini leksiya** – zamona viy ta’limning effektiv usullaridan biri hisoblanadi. Amal qilish mehanizmi quyidagicha: o‘qituvchi 10-20 minut ichida ma’ruza o‘qiydi. O‘quvchilar diqqat bilan qulq solishadi. Ma’ruza o‘qib bo‘linganidan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchilarga 3-5 daqiqa vaqt berib ma’ruzaning asosiy mazmunini tezis shaklda konspekt qilishga imkon beradi. Konspekt tuzish jarayonida o‘quvchilar noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida o‘qituvchiga yoki bir-birlariga savollar berishi mumkin.

**Stol o‘rtasidagi ruchka** – o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib (uch kishidan yeti kishigacha), o‘z guruhlarida g’oya almashishni boshlaydilar. Har kim o‘z ruchka yoki qalamini stolni o‘rtasiga qo‘yib, bu bilan muhokamaga o‘z hissasini qo‘sishini bildiradi. Guruh ishtirokchilarining hammasi ruchkalarini stolning o‘rtasiga qo‘ymaguncha, hech kim o‘zining boshqa g’oyalarini bayon eta olamaydilar. Bu usul o‘qituvchidan katta mahoratni talab etadi. O‘qituvchi guruhlar muhokamasini diqqat bilan kuzatib boradi, natijalarni yozadi. Muhokama tugagach, o‘qituvchi stolning ustidagi xohlagan ruchkani olib, uning egasidan (o‘quvchidan) muhokamaga qanday hissa qo‘sghanini so‘rashi mumkin. Oxirida o‘qituvchi guruhlar muhokamalarini baholaydi va masalaga yakun yasaydi. Bu usul guruh a’zolarining masala muhokamasiga teng hissa qo‘sish imkoniyatlariga ega ekanliklarini isbotlaydi. Bunday munozalarda hech kim ustunlik qila olmaydi. Boshqalarning fikrlarini hurmat qilishga o‘rgatadi.

**BBB jadvali** – ushbu strategiya yordamida matn mazmunini tushuntirishga qaratilgan. O‘quv jarayonida o‘quvchi axborotni o‘zi uchun naqadar ahamiyatli ekanligini aniqlaydi va yangi bilimlarga ega bo‘ladi. BBB jadvali yozuv taxtasiga yoki katta qog’ozga tayyorlanadi.

#### **BBBjadvali**

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim
1		
2		
3		
4		

1.O‘qituvchi matn mavzusi bo‘yicha savol beradi va juftliklarda yoki kichik guruhlarda aqliy hujum o‘tkazadi.

2. Aqliy hujum natijasida paydo bo‘lgan g’oyalarni “Bilaman” ustuniga yozib chiqadi.

3. Parallel ravishda paydo bo‘layotgan savollarni “Bilishni xohlayman” ustuniga yozib chiqadi.

4. O‘quvchilar matnni o‘qiydilar va qo‘yilgan savollarga javob izlaydilar.

5. O‘qituvchi o‘quvchilardan qo‘yilgan savollarga javoblarni topgan yoki topmaganligini aniqlab, topilgan javoblarni “Bilib oldim” ustuniga yozib chiqadi.

6. O‘qituvchi o‘quvchilardan qo‘yilgan savollardan tashqari, yana qanday yangi ma’lumotlarni bilishlarini aniqlab, bu javoblarni ham “Bilib oldim” ustuniga yozib chiqadi.

7. “Bilaman” ustuniga yozilgan g’oyalarni qanchalik to‘g’ri ekanligini o‘quvchilar bilan muhokama qiladi.

8. Javobsiz qolgan savollarga e’tibor berish kerak. Bu savollarga javoblarni o‘quvchilar qayerdan olishlari mumkinligi muhokama qilinishi lozim. Ushbu strategiya o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini aktivlashtiradi, axborotlar bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini hosil qilishga yordam beradi. Axborotni qisqa va lo‘nda shaklda yozma ravishda ifoda etib berish ko‘nikmalarini hosil etadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan interfaol metodlarimiz dars jarayonida o‘quvchilarni har tomonlama fikrlashga undaydi, o‘zgalarning fikrini tinglashni, ularning fikrlarini hurmat qilishni o‘rganadi hamda



aqliy va ijodiy fikrlashlarini yanada teranlashtirib, mantiqiy dunyoqarashini shakllantirishga zamin yaratadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Tarix darslarida pedagogik texnologiyalar: interfaol metodlar va ularning amaliy ahamiyati. Tarix fani o'qituvchilari uchun metodik ko'rsatma. TSHXTXQTUMOI. Toshkent, 2016-yil.
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika. Toshkent 2017-yil
3. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. – T.: 2005-yil